Ustav

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-iyundagi
282-son qaroriga
1-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

USTAVI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Ustav O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining (keyingi o‘rinlarda — Fanlar akademiyasi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, Fanlar akademiyasi a’zolarining huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Fanlar akademiyasi mamlakatning ilm-fan, texnika, madaniyat va ma’rifat sohalarida fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni (keyingi o‘rinlarda — ilmiy tadqiqotlar) muvofiqlashtiruvchi va amalga oshiruvchi yetakchi davlat ilmiy tashkiloti hisoblanadi.

3. Fanlar akademiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, ushbu Ustavga amal qiladi.

4. Fanlar akademiyasining faoliyati O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari va ushbu Ustavga muvofiq o‘zini o‘zi boshqarish va takomillashtirish tamoyillari asosida amalga oshiriladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

5. Fanlar akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga (keyingi o‘rinlarda — Vazirlar Mahkamasi) o‘z vazifalarini amalga oshirish jarayonidagi dolzarb va ustuvor muammolarni hal etishda qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan tartibda takliflar kiritish huquqiga ega.

6. Fanlar akademiyasi, uning Qoraqalpog‘iston mintaqaviy bo‘limi (keyingi o‘rinlarda — mintaqaviy bo‘lim), viloyatlardagi hududiy bo‘limlari (keyingi o‘rinlarda — hududiy bo‘limlar), ilmiy tashkilotlari va tizimidagi tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda — tizim tashkilotlari) o‘zining ustavida belgilangan maqsadlarga mos keladigan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

7. Fanlar akademiyasi o‘z tizim tashkilotlari mol-mulklariga, ular tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlariga (ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari, “nou-xau”lar, ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik va texnologiya ishlari, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, urug‘chilik, dasturiy mahsulotlar va shu kabilarga) belgilangan tartibda egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqiga ega.

Bunda mazkur faoliyat bilan bog‘liq ma’lumotlar Fanlar akademiyasi tomonidan doimiy ravishda yuritiladigan ma’lumotlar bazasida aks ettiriladi hamda undan tadqiqotlar o‘tkaziladigan ilmiy tashkilotlar foydalanish huquqiga ega bo‘ladilar.

8. Fanlar akademiyasi o‘z tizim tashkilotlariga yuklangan funksiyalar va vazifalarning samarali bajarilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

9. Fanlar akademiyasi o‘z faoliyati bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga har yili hisobot beradi.

10. Fanlar akademiyasi, uning tizim tashkilotlari yuridik shaxs hisoblanadi hamda o‘zining mustaqil balansiga, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, tashkilot nomi yozilgan muhrga, boshqa zarur muhr va shtamplarga, bank hisobvaraqlariga, jumladan, valyuta hisobvarag‘iga ega bo‘ladi.

11. Fanlar akademiyasining joylashgan joyi (pochta manzili): Toshkent shahri, akademik Yahyo G‘ulomov

ko‘chasi, 70-uy, 100047.

12. Fanlar akademiyasining rasmiy nomi:

davlat tilida — O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi;

rus tilida — Akademiya nauk Respubliki Uzbekistan;

ingliz tilida — Uzbekistan Academy of Sciences.

2-bob. Fanlar akademiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari

13. Fanlar akademiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

fizika-matematika, texnika, tabiiy, tibbiyot va biotexnologiya, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy-gumanitar ilm-fan sohalarida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish;

ilm-fanni ta’lim va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish;

iqtisodiyot tarmoqlari va respublika hududlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ilm-fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari, davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

respublika iqtisodiyoti uchun jahon va mamlakat ilm-fan yutuqlaridan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqish;

xorijiy davlatlarning ilmiy tashkilotlari va jamg‘armalari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, xalqaro grantlarni jalb qilish, xalqaro ilmiy forum va anjumanlarni tashkil etish va o‘tkazishda qatnashish;

mamlakatimiz ilm-fani, ilmiy salohiyati, fan-texnika sohasida erishilgan yutuqlarni targ‘ib qilish va ommalashtirish;

ilmiy tashkilotlarda faoliyat yuritish jozibadorligini oshirish orqali yosh kadrlar oqimini ta’minlash hamda yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlashda ishtirok etish.

14. Fanlar akademiyasi o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) fizika-matematika, texnika, tabiiy, tibbiyot va biotexnologiya, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy-gumanitar ilm-fan sohalarida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha:

ilm-fan, texnika va innovatsion rivojlanish sohasida ilmiy loyihalarni amalga oshirishni o‘z vakolati doirasida ta’minlaydi;

ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasidagi ilmiy loyihalarni ekspertizadan o‘tkazishda ishtirok etadi;

davlat va jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy-axloqiy rivojlantirishga yo‘naltirilgan fizika-matematika, texnika, tabiiy, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazadi, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqadi;

ilmiy faoliyat subyektlari uchun ilmiy asbob-uskunalardan jamoaviy foydalanish markazlari, noyob ilmiy obyektlardan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tarzda foydalanish bilan bog‘liq zarur shart-sharoitlar yaratadi;

tadqiqotchilar va ilmiy tadqiqot o‘tkazayotgan jamoalarning ilmiy asarlarini tezkorlik bilan e’lon qilish maqsadida noshirlik faoliyatini amalga oshiradi, Fanlar akademiyasining davriy nashrlarini tayyorlash va chop etish ishlarini ta’minlaydi. Fanlar akademiyasining davriy nashrlari tahririyati tarkibiga xorijiy olimlarni jalb etadi va ularning faoliyatini tashkil etadi;

Fanlar akademiyasi, uning tizim tashkilotlari, Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari, shuningdek, tizim tashkilotlarida ilmiy xodimlar va mutaxassislarning samarali faoliyatini

ta’minlaydi, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etadi va o‘tkazadi;

b) ilm-fanni ta’lim va ishlab chiqarish bilan integratsiya qilish mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish bo‘yicha:

iqtisodiyotning jadal o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida “oliy ta’lim tashkiloti — ilmiy tashkilot — korxona” o‘rtasida hamkorlikni mustahkamlaydi va takomillashtiradi;

Fanlar akademiyasi, uning tizim tashkilotlari turdosh oliy ta’lim va tarmoq ilmiy tashkilotlari bilan olimlarning avlod almashinuvi uzviyligini, shuningdek, ilmiy tashkilotlar uchun yosh mutaxassislar tayyorlashda hamkorlikni ta’minlaydi;

Fanlar akademiyasining akademiklari va yetakchi olimlari tomonidan sohaviy oliy ta’lim tashkilotlarida ma’ruza mashg‘ulotlari o‘tkazilishini, fan doktori ilmiy darajasi (DSc) va falsafa doktori (PhD) talabgorlariga hamda magistrlarning ilmiy ishlariga rahbarlikni ta’minlaydi;

Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlari va oliy ta’lim tashkilotlarining fakultetlari bazasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazadigan idoralararo ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va markazlarini tashkil etadi;

davlat muzeylari va ko‘rgazmalar, innovatsion va (yoki) ilmiy-texnologik tuzilmalarni (texnoparklar, innovatsion markazlar, innovatsion klasterlar va boshqalar) tashkil etishda va ularning faoliyatini ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etadi;

ilm-fanning moddiy-texnik bazasi va ijtimoiy ta’minotini rivojlantirishga, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, integratsiya mexanizmlarini takomillashtirishga, ilm-fanning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanishga doir takliflarni yuqori tashkilotlarga kiritishda tashabbus ko‘rsatadi va ularni ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadi;

v) respublika iqtisodiyoti uchun ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish uchun takliflar ishlab chiqish bo‘yicha:

istiqbolli ilmiy tadqiqotlarning davlat va boshqa ilmiy-texnik dasturlarini;

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlarini (ilmiy-uslubiy ekspertiza va dasturlarni amalga oshirishning maqsadga muvofiqligini asoslash bo‘yicha);

ilmiy tashkilotlarning ilmiy tadqiqotlari va innovatsion faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan va belgilangan tartibda jalb etilgan budjetdan tashqari manbalaridan moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini;

Fanlar akademiyasi ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, ular asosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnologiyalar va innovatsiyalarni rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqadi hamda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

g) respublika iqtisodiyoti uchun jahon va mamlakat ilm-fan yutuqlaridan foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha:

jahon ilm-fani va texnologiya yutuqlarini umumlashtiradi, ulardan foydalanishni tavsiya etadi, ilmiy tashkilotlar faoliyatiga xorijiy hamda ichki investitsiyalar jalb etilishida ishtirok etadi, shuningdek, ulardan oqilona foydalanilishini ta’minlaydi;

Fanlar akademiyasida yaratilgan ixtirolarni va boshqa intellektual mulk obyektlari o‘z vaqtida patentlanishida, shu jumladan, xalqaro patentlar olishda ko‘maklashadi, qonunchilik hujjatlariga muvofiq ulardan o‘z faoliyatida foydalanadi va ularning himoya qilinishini ta’minlaydi. Tijorat sirini tashkil etuvchi “nou-xau” va boshqa intellektual mulk obyektlarini himoya qilish uchun tegishli choralarni ko‘radi;

iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishga ko‘maklashadi;

mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladigan ilm-fan yutuqlarini va ilmiy hajmdor texnologiyalarni amaliyotga qo‘llashga doir samarali takliflarni ishlab chiqadi va tegishli tashkilotlarga kiritadi;

d) xorijiy davlatlarning ilmiy tashkilotlari va jamg‘armalari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, xalqaro grantlarni jalb qilish, xalqaro ilmiy forum va anjumanlarni tashkil etish va o‘tkazishda qatnashish bo‘yicha:

xorijiy mamlakatlar ilmiy tashkilotlari va ta’lim tashkilotlari bilan xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikning samarali shakllari hamda yo‘nalishlarini, jumladan, hamkorlikda ilmiy loyihalarni amalga oshiradi;

ilmiy kadrlarning, shu jumladan, Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlari yosh olimlarining xorijdagi yetakchi ilmiy va ta’lim tashkilotlarida o‘qishini va malakasini oshirishni tashkil etishda ko‘maklashadi;

xorijiy ilmiy tashkilot va oliy ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotlar uchun xorijiy tashkilotlar hamda jamg‘armalarning xalqaro ilmiy grantlarini jalb etadi;

dolzarb ilmiy-texnik muammolar hamda buyuk mutafakkirlar, mashhur ilm-fan va adabiyot arboblari sharafiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy, ilmiy-texnik kongresslar, konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlarni tashkil etish va o‘tkazishda, shuningdek, xalqaro ilmiy jurnallarning tahrir hay’atlari ishlarida ishtirok etadi;

Fanlar akademiyasi o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun turli vaqtincha yoki doimiy komissiyalar, jumladan, ilmiy faoliyat etikasi bo‘yicha komissiya, arxiv komissiyasi va boshqalarni tashkil etadi;

e) mamlakatimiz ilm-fani, ilmiy salohiyati, fan-texnika sohasida erishilgan yutuqlarni targ‘ib qilish va ommalashtirish bo‘yicha:

mamlakatimiz va jahonning ilmiy yutuqlari, shuningdek, mutafakkir ajdodlarimizning sivilizatsiyaga qo‘shgan boy ilmiy merosini ommalashtirish orqali ilmiy bilimlarni targ‘ib qiladi;

Fanlar akademiyasining taniqli olimlar sharafiga va ularning nomi bilan ataluvchi mukofotlarni ta’sis etish bo‘yicha belgilangan tartibda yuqori tashkilotlarga takliflar kiritadi va bu mukofotlarni yuksak ilmiy va ilmiy-texnik yutuqlarga erishgan olimlar hamda ijodiy jamoalarga beradi;

ilmiy-tadqiqotlar ishlarining eng muhim yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy kengashlar, jamiyatlar va boshqa birlashmalarni tashkil etadi, ularning samarali ishlashini ta’minlaydi hamda ilm-fanni rivojlantirishda ularning imkoniyatlaridan keng foydalanadi;

Fanlar akademiyasi olimlarining ilmiy yutuqlarini ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib boradi;

j) ilmiy tashkilotlarda faoliyat yuritish jozibadorligini oshirish orqali yosh kadrlar oqimini ta’minlash hamda yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlashda ishtirok etish bo‘yicha:

ilm-fan va ta’limning jamiyat hayotidagi nufuzi hamda ahamiyatini oshirish, olimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ilmiy xodimlarning huquqlarini ta’minlashga doir tadbirlarni amalga oshiradi;

Fanlar akademiyasining ilmiy va moddiy-texnik bazasidan foydalangan holda, ilmiy-tadqiqotlar ishlarini tashkil etish va o‘tkazishga fan tarmoqlari bo‘yicha yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashda tarmoq ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim tashkilotlariga ko‘maklashadi;

Fanlar akademiyasi huzuridagi Yosh olimlar kengashi faoliyatini tubdan takomillashtiradi va ularning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqadi.

3-bob. Fanlar akademiyasining Umumiy yig‘ilishi

15. Fanlar akademiyasining Umumiy yig‘ilishi (keyingi o‘rinlarda — Umumiy yig‘ilish) uning yuqori

boshqaruv organi hisoblanib, Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolaridan hamda ilmiy tashkilotlar direktorlaridan iborat bo‘ladi.

16. Umumiy yig‘ilish ilm-fan rivojlanishining eng muhim masalalari va Fanlar akademiyasi faoliyatini ko‘rib chiqish uchun Fanlar akademiyasi Prezidiumi tomonidan yiliga kamida bir marta chaqiriladi.

Umumiy yig‘ilish Fanlar akademiyasi Prezidiumi qarori yoki Umumiy yig‘ilish a’zolarining kamida uchdan bir qismining murojaati, shuningdek, fan yo‘nalishlari bo‘limlarining taklifiga ko‘ra ular tavsiya etgan masalalarni muhokama qilish uchun ham chaqirilishi mumkin.

17. Umumiy yig‘ilish:

ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qiladi hamda ular bo‘yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqadi va qabul qiladi;

ovoz berish orqali Fanlar akademiyasi prezidenti, Birinchi vitse-prezidenti — bosh ilmiy kotib va vitse-prezidentlarni besh yil muddatga saylaydi, shuningdek, ushbu Ustavga muvofiq ularni lavozimidan ozod etish bo‘yicha Fanlar akademiyasi Prezidiumiga takliflar beradi;

Fanlar akademiyasining ustavini tasdiqlash, unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi;

Fanlar akademiyasining xorijiy va faxriy a’zolarini ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylaydi;

Fanlar akademiyasining yillik hisobotini muhokama qiladi va tasdiqlaydi;

Fanlar akademiyasi prezidenti, Birinchi vitse-prezidenti — bosh ilmiy kotib, vitse-prezidentlari va Fanlar akademiyasining mintaqaviy va viloyatlardagi hududiy bo‘limlari rahbarlari (raislari)ning yillik hisobotlarini muhokama qiladi va tasdiqlaydi;

ilm-fanning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha yetakchi olimlarning ma’ruzalarini eshitadi, muhokama qiladi, tegishli tavsiyalar beradi;

ilm-fan sohasidagi dolzarb ilmiy-tashkiliy masalalarni muhokama qiladi;

ilmiy tashkilotlarni tashkil qilish va ularning faoliyatini tugatish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqadi;

zarurat bo‘lganda, Fanlar akademiyasi faoliyatiga daxldor boshqa masalalarni ham ko‘rib chiqadi.

18. Umumiy yig‘ilish a’zolarining kamida uchdan ikki qismi majlisda qatnashganda va qaror qabul qilish uchun yig‘ilishda qatnashganlarning uchdan ikki qismi ovoz bergan taqdirda, Umumiy yig‘ilish vakolatli bo‘ladi va uning qarorlari qabul qilingan hisoblanadi.

19. Umumiy yig‘ilish qarorlarini bajarish Fanlar akademiyasi, uning tizim tashkilotlari, Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari va xodimlari uchun tavsiya etiladi.

4-bob. Fanlar akademiyasining tarkibi

20. Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy-tarmoq va hududiy tamoyillar bo‘yicha tashkil etiladi.

21. Fanlar akademiyasi o‘z haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari, faxriy va xorijiy a’zolari, shuningdek, tizim tashkilotlarida xizmat qiluvchi ilmiy xodimlari va mutaxassislarini birlashtiradi.

22. Fanlar akademiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

boshqaruv apparati;

mintaqaviy va hududiy bo‘limlar;

ilmiy tashkilotlar;

Fanlar akademiyasining tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi boshqa tashkilotlar.

23. Fanlar akademiyasining tashkiliy tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Fanlar akademiyasi prezidenti zarurat bo‘lganda, Fanlar akademiyasi boshqaruv apparatining tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy cheklangan soni va mehnatga haq to‘lash fondi doirasida o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

24. Fanlar akademiyasi Prezidiumi Fanlar akademiyasi faoliyatini tezkor boshqaruvchi kollegial organ hisoblanadi.

Fanlar akademiyasi Prezidiumi tarkibiga Fanlar akademiyasi prezidenti, Birinchi vitse-prezidenti — bosh ilmiy kotib, vitse-prezidentlar, mintaqaviy va hududiy bo‘lim rahbarlari (Namangan, Samarqand va Termiz shaharlaridagi hududiy bo‘limlar rahbarlari bundan mustasno), Fanlar akademiyasi boshqaruv apparatidagi fan yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘limlar (keyingi o‘rinlarda — fan bo‘limlari) boshliqlari, shuningdek, ilm-fan yo‘nalishlaridan jamoatchilik asosida taklif etilgan akademiklar, muxbir a’zolar kiradi.

Fanlar akademiyasi Prezidiumi tarkibi Umumiy yig‘ilish tomonidan besh yil muddatga ochiq ovoz berish yo‘li bilan tasdiqlanadi.

Fanlar akademiyasi Prezidiumi fan bo‘limlari orqali ilmiy tashkilotlarni boshqaradi.

Fan bo‘limiga bevosita Fanlar akademiyasi Prezidiumi a’zosi hisoblangan bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi. Bo‘lim boshlig‘i tegishli ilmiy yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatayotgan Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari orasidan besh yil muddatga ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

Fan bo‘limlari o‘z tizimidagi ilmiy tashkilotlar faoliyatini ko‘rib chiqadi va har tomonlama tahlil qiladi, ularning faoliyat yo‘nalishlari, ilmiy, innovatsion va tashkiliy faoliyati darajasi va samaradorligini muhokama va tahlil qiladi, yillik hisobotlarni tasdiqlaydi.

Fan bo‘limlari mazkur tahlillar asosida ilmiy tashkilotlarning samarali faoliyatiga to‘sqinlik qilayotgan mavjud muammolarni aniqlaydi, yangi ilmiy tashkilotlarni tashkil qilish va ularning faoliyatini tugatish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqadi va Fanlar akademiyasi Prezidiumiga Umumiy yig‘ilishda ko‘rib chiqish uchun takliflar kiritadi.

Fanlar akademiyasi Prezidiumi o‘z qarori bilan fan bo‘limlari huzurida jamoatchilik asosida Hay’at (keyingi o‘rinlarda — Hay’at) tuzadi. Hay’at har oyda bir martadan kam bo‘lmagan yig‘ilishlarni o‘tkazadi, uning ishiga ko‘rilayotgan masalaga tegishli haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolar, soha va oliy ta’lim tashkilotlaridan yirik mutaxassislar taklif etiladi.

Hay’at tegishli vitse-prezident bilan kelishilgan holda, mavjud bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlarning eng muhim ilmiy va ilmiy-tashkiliy muammolarini ko‘rib chiqishi uchun majlislar tashkil etadi. Majlis yakunlari bo‘yicha hisobot Fanlar akademiyasi Prezidiumiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi.

25. Fanlar akademiyasi operativ boshqarish ishlarini amalga oshiruvchi maslahat organi – ilmiy tashkilotlari direktorlarining kengashini (keyingi o‘rinlarda — Kengash) tashkil etadi. Kengash faoliyati Prezidium tomonidan tasdiqlanadigan nizom asosida belgilanadi.

Kengash raisi bir yil muddatga Kengash a’zolari tomonidan ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

26. Fanlar akademiyasi Birinchi vitse-prezidenti — bosh ilmiy kotib va vitse-prezidentlari huzurida Fanlar akademiyasining ekspertlari va yuqori malakali mutaxassislaridan iborat komissiyalar tuzishi mumkin.

5-bob. Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘limi va hududiy bo‘limlari

27. Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘limi va hududiy bo‘limlari hududlarda fan va ilmiy-texnik salohiyatni rivojlantirish maqsadida tuziladi.

28. Mintaqaviy bo‘lim va hududiy bo‘limlarga bo‘lim rahbari (raisi), uning o‘rinbosari va ilmiy kotibi rahbarlik qiladi.

Mintaqaviy bo‘lim va hududiy bo‘limlar rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari va ilmiy kotiblari Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan besh yil muddatga lavozimga tayinlanadi. Bunda Qoraqalpog‘iston mintaqaviy bo‘limi raisi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi.

Mintaqaviy bo‘lim va hududiy bo‘limlar rahbarlari (raislari) (Namangan, Samarqand va Termiz shaharlaridagi hududiy bo‘limlar bundan mustasno) maqomiga ko‘ra Fanlar akademiyasi vitse-prezidentiga tenglashtiriladi.

Mintaqaviy bo‘lim va hududiy bo‘limlar rahbarlari (raislari) Umumiy yig‘ilish qarorlari hamda Fanlar akademiyasi prezidentining buyruqlari bajarilishini ta’minlaydi.

Mintaqaviy bo‘lim va hududiy bo‘limlar o‘z faoliyatini ushbu Ustav va Fanlar akademiyasi Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston mintaqaviy bo‘limi va viloyatlardagi hududiy bo‘limlar to‘g‘risidagi nizomlarga muvofiq amalga oshiradi.

29. Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati uning ilmiy tashkilotlarida amalga oshiriladi.

6-bob. Fanlar akademiyasi a’zoligiga nomzodlarni saylash tartibi

30. Fanlar akademiyasining muxbir a’zoligiga 60 yoshgacha bo‘lgan fan doktorlari orasidan fanni salmoqli ilmiy ishlari bilan boyitgan, mamlakat iqtisodiyoti va salohiyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan taniqli olimlar saylanadi.

31. Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligiga (akademikligiga) jahon andozalari darajasidagi ilmiy ishlari bilan tanilgan, ilmiy jamoatchilik tan olgan ilmiy maktab yaratgan, ilmiy yutuqlari mamlakat intellektual va iqtisodiy salohiyatini oshirishga salmoqli hissa qo‘shgan va O‘zbekistonda ilmiy faoliyat yuritadigan Fanlar akademiyasining muxbir a’zolaridan saylanadi.

32. Ilmiy ixtisosliklar bo‘yicha e’lon qilinadigan o‘rinlar ro‘yxati Fanlar akademiyasining tegishli fan bo‘limlarida ilmiy jamoatchilikning keng muhokamasi orqali shakllantiriladi va Fanlar akademiyasi Prezidiumi tomonidan tasdiqlanadi.

Fanlar akademiyasi fan bo‘limlarida ilmiy seminarlar tashkil etiladi, unda muxbir a’zoligiga va haqiqiy a’zoligiga nomzodlar haqiqiy a’zolar ishtirokida taqdimotlar o‘tkazadilar.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligiga (akademikligiga) va muxbir a’zoligiga nomzodlar saralash bosqichi va ilmiy ma’ruza baholari asosida fan yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘limlar tomonidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi va ular Umumiy yig‘ilish muhokamasiga tavsiya etiladi. Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zolarini saylashda muxbir a’zolar ishtirok etmaydi.

33. E’lon qilingan ilmiy sohalar bo‘yicha Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligiga (akademikligiga) va muxbir a’zoligiga nomzodlarni ko‘rsatish huquqi Fanlar akademiyasining tizim tashkilotlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim va tarmoq ilmiy tashkilotlarining ilmiy yoki ilmiy-texnik kengashlariga beriladi.

34. Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligiga (akademikligiga) va muxbir a’zoligiga nomzodlar mintaqaviy bo‘lim va hududiy bo‘limlar, Fanlar akademiyasi hamda oliy ta’lim va tarmoq ilmiy tashkilotlari ilmiy (ilmiy-texnik) kengash yig‘ilishlarida har bir nomzod bo‘yicha yashirin ovoz berish yo‘li bilan tavsiya etiladi. Saylovda kengash a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi kerak. Ilmiy kengash yig‘ilishida ishtirok etayotgan a’zolarning ko‘pchiligining ovozini olgan nomzod a’zolikka ko‘rsatilgan hisoblanadi.

Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligiga (akademikligiga) va muxbir a’zoligiga nomzodlarini taqdim etgan tashkilot belgilangan tartibda Fanlar akademiyasi ilmiy kadrlar bo‘limiga yo‘llanma xati va nomzod

bo‘yicha bayonnoma nusxasini, ko‘rsatilgan nomzodning shaxsiy ma’lumotnomasi, (tarjimai holi) ilmiy va ilmiy-tashkiliy faoliyati aks etgan hujjatlarni taqdim etadi.

Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zoligiga (akademikligiga) va muxbir a’zoligiga nomzodlarni Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zolari ham tavsiya etishi mumkin.

Fanlar akademiyasining a’zoligiga saylov tegishli fan bo‘limlarida o‘tkaziladi.

Bo‘lim o‘z vakolatlari doirasida Fanlar akademiyasining a’zolarini saylashni tashkil qilib, talabgorlarni tavsiflovchi qo‘shimcha hujjatlar bilan tanishadi hamda nomzodlarning ilmiy va tashkiliy faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitadi.

Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklar) va muxbir a’zolari yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi. Ovoz berishda haqiqiy a’zolikka (akademiklikka) faqat haqiqiy a’zolar (akademiklar) muxbir a’zolikka esa haqiqiy a’zolar (akademiklar) va muxbir a’zolar ishtirok etadi.

Saylangan nomzodlar to‘g‘risidagi bo‘lim qarori Umumiy yig‘ilishda a’zolarning ko‘pchiligi ochiq ovoz berishi bilan tasdiqlanadi.

Fanlar akademiyasining xorijiy a’zolari ilmiy yutuqlari jahon ilm-fan rivojiga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ilm-fani, iqtisodiyoti va madaniyati rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan, xalqaro hamkorlik, tinchlik, barqarorlik hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga salmoqli hissa qo‘shgan xorijiy fuqarolar orasidan saylanadi.

Fanlar akademiyasining faxriy a’zoligiga kasbiy faoliyati orqali mamlakatimiz ilm-fani, madaniyati, ta’limi, madaniy qadriyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishiga faol ko‘maklashgan O‘zbekiston Respublikasi hamda xorijiy fuqarolari saylanadi.

35. Fanlar akademiyasining xorijiy a’zolari va faxriy a’zolari ochiq ovoz berish yo‘li bilan Umumiy yig‘ilishda hozir bo‘lgan a’zolarning ko‘pchilik ovozi bilan saylanadi va Fanlar akademiyasi Prezidiumi tomonidan tasdiqlanadi.

36. Fanlar akademiyasining saylangan haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi va matbuotda e’lon qilinadi.

7-bob. Fanlar akademiyasi a’zolarining huquqlari va majburiyatlari

37. Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari quyidagi huquqlarga ega:

Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlarida va oliy ta’lim tashkilotlarida tanlovsiz ilmiy lavozimlarni egallash;

Umumiy yig‘ilishda qatnashish, Umumiy yig‘ilish va Fanlar akademiyasi Prezidiumida ilmiy va ilmiy-tashkiliy masalalar, Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari), muxbir, xorijiy, faxriy a’zolarini saylash jarayonida nomzodlarni muhokama qilishda ishtirok etish;

Umumiy yig‘ilish tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlar va ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha, shuningdek, fanning dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha mamlakatda ilm-fanni rivojlantirish, Fanlar akademiyasining ilmiy kengashlarini tuzish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish;

Fanlar akademiyasining ilmiy kengashlari faoliyatida ishtirok etish.

O‘zbekistonda ishlaydigan Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari belgilangan tartibda gonorar oladilar hamda belgilangan boshqa huquq va imtiyozlardan foydalanadilar.

Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari O‘zbekiston fuqaroligini boshqa davlat fuqaroligiga o‘zgartirganda, belgilangan tartibda Fanlar akademiyasining xorijiy a’zosi maqomiga ega bo‘lishi mumkin.

Fanlar akademiyasining xorijiy va faxriy a’zolari Umumiy yig‘ilish va boshqa tadbirlarda maslahat ovozi bilan qatnashishlari mumkin.

Fanlar akademiyasining xorijiy va faxriy a’zolari Fanlar akademiyasining rahbar organiga saylanish, Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoligiga o‘tkaziladigan nomzodlar tanlovida ishtirok etish huquqlariga hamda gonorar va bepul dam olish imtiyozlarga ega bo‘lmaydilar.

38. Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

ilmiy tadqiqotlarda, tadqiqotlarning ustuvor va istiqbolli yo‘nalishlarini shakllantirishda ishtirok etish va o‘zi saylangan ilm-fan sohasini (ilmiy ixtisoslik)ning rivojlanishini ta’minlash;

yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash ishlarida, ilg‘or ilmiy maktablarni shakllantirish va rivojlantirishda, shuningdek, oliy va o‘rta maxsus va kasbiy ta’lim tashkilotlariga, ishlab chiqarish korxonalariga ilmiy-metodik yordam ko‘rsatishda bevosita ishtirok etish.

Fanlar akademiyasining haqiqiy a’zolari (akademiklari) va muxbir a’zolari zimmasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

8-bob. Fanlar akademiyasi Prezidiumi a’zolarini saylash tartibi va ularning lavozim majburiyatlari

39. Fanlar akademiyasi prezidenti akademiyaning haqiqiy a’zolari orasidan besh yil muddatga saylanadi va Fanlar akademiyasining ilmiy-tashkiliy faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Ayni bir shaxs Fanlar akademiyasi prezidenti lavozimiga ketma-ket ikki muddatdan ortiq saylanishi mumkin emas.

Fanlar akademiyasi prezidentligiga nomzodlar fan bo‘limlari tomonidan ovoz berish yo‘li bilan tanlanadi. Tanlangan nomzodlar saylov muqobilligini ta’minlash uchun Umumiy yig‘ilish byulleteniga yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylash uchun kiritiladi.

Byulletenga kiritilgan nomzodlar Umumiy yig‘ilishda muhokama qilinadi va yashirin ovoz berish yo‘li bilan Fanlar akademiyasi prezidentligiga saylanadi. Bunda Umumiy yig‘ilish a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi lozim. Umumiy yig‘ilish ishtirokchilarining yarmidan ko‘pi yoqlab ovoz bergan taqdirda, nomzod O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tasdiqlash uchun yuboriladi.

Fanlar akademiyasi prezidenti haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni matbuotda e’lon qilinadi.

40. Fanlar akademiyasi prezidenti:

Fanlar akademiyasi faoliyatiga va unga yuklangan vazifalarning bajarilishiga umumiy rahbarlik qilib, dolzarb masalalarni hal etadi;

Fanlar akademiyasidagi ishlarning holati uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va Umumiy yig‘ilish oldida shaxsan javobgarlikni zimmasiga oladi;

respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamda xalqaro maydonda Fanlar akademiyasi nomidan ish yuritadi va uning manfaatlarini himoya qiladi;

Fanlar akademiyasining Birinchi vitse-prezidenti — bosh ilmiy kotib, vitse-prezidentlari, tizim tashkilotlari rahbarlari (raislari) hamda fan yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘limlar boshliqlari, Fanlar akademiyasi boshqaruv apparati xodimlarining lavozim vazifalarini tasdiqlaydi va ushbu vazifalarning bajarilishini nazorat qiladi;

ilmiy tashkilotlar tomonidan ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazilishini, shuningdek, fan yutuqlari va yangi

texnologiyalarning o‘z vaqtida amaliyotga tatbiq etilishini nazorat qiladi;

Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarining oliy va o‘rta maxsus, kasbiy ta’lim tashkilotlari, shu jumladan, xorijiy ilmiy markazlar va oliy ta’lim tashkilotlari, ishlab chiqarish korxonalari va boshqa tashkilotlar bilan samarali hamkorligi muvofiqlashtirilishini ta’minlaydi;

Fanlar akademiyasi boshqaruv apparati, shuningdek, tizim tashkilotlari faoliyatini nazorat qiladi;

Fanlar akademiyasi tizimida ilmiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlariga rahbarlik qiladi;

Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlarida xodimlarning faoliyati samarali bo‘lishiga yordam beruvchi qulay sharoitlar yaratish maqsadida ilmiy jamoalarda ijodiy muhit tashkil etilishini va odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlaydi.

Birinchi vitse-prezident — bosh ilmiy kotib, vitse-prezidentlar, lavozimiga nomzodlar Fanlar akademiyasi prezidentining tavsiyasiga asosan fan bo‘limlarida muhokama qilinadi va Umumiy yig‘ilishda ovoz berish yo‘li bilan haqiqiy a’zolar (akademiklar), muxbir a’zolar orasidan saylanadi va Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan belgilangan tartibga muvofiq besh yil muddatga lavozimga tasdiqlanadi. Ular lavozimdan Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan Fanlar akademiyasi Prezidiumining qarori bilan ozod etiladi.

Fanlar akademiyasining moliyaviy va xo‘jalik ishlariga Fanlar akademiyasi prezidentining moliyaviy va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari rahbarlik qiladi.

Fanlar akademiyasi prezidentining moliyaviy va xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda, Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

41. Fanlar akademiyasining Birinchi vitse-prezidenti — bosh ilmiy kotib:

Fanlar akademiyasi tizimida ish yuritishni tashkil qiladi va ijro intizomini mustahkamlashning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy-boshqaruv hujjatlari sifatli tayyorlanishi va ularning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlaydi;

Fanlar akademiyasida amalga oshirilgan ilmiy-tashkiliy faoliyat natijalari bo‘yicha tegishli vitse-prezidentlar xizmati tomonidan taqdim etilgan hisobotlarni umumlashtirib, belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlaydi;

muhim ilmiy masalalarni, shuningdek, yirik iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan ko‘p tarmoqli ilmiy, ilmiy-texnik va amaliy dasturlarni shakllantiradi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash va yuqori tashkilotlarga taqdim etish, Umumiy yig‘ilish hamda Fanlar akademiyasi Prezidiumi majlislarini o‘tkazishda Fanlar akademiyasi prezidentiga ko‘maklashadi.

42. Fanlar akademiyasi vitse-prezidentlari:

tegishli ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalarning bajarilishini tashkil etish uchun shaxsan mas’ul hamda tizimidagi ilmiy tashkilotlar holati uchun javobgar hisoblanadi;

o‘zlari rahbarlik qilayotgan fan yo‘nalishlarida bo‘yicha davlat dasturlarini shakllantirish, ularning ekspertizasi va monitoringini o‘tkazishni nazorat qiladi, fundamental, amaliy va inovatsion tadqiqotlarning yuqori darajada bo‘lishi uchun javob beradi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda Hukumatining hujjatlari va topshiriqlarini hamda Fanlar akademiyasi Prezidiumi va rahbariyatining qaror va buyruqlari hamda topshiriqlari o‘z vaqtida sifatli bajarilishini ta’minlaydi.

43. Fanlar akademiyasi prezidenti bo‘lmagan hollarda, uning vazifasi muayyan muddatga Birinchi vitse-prezident — bosh ilmiy kotibga yoki vitse-prezidentlarning biriga vaqtincha yuklanadi.

44. Fanlar akademiyasining Prezidiumi:

Fanlar akademiyasi faoliyatiga taalluqli barcha masalalarni hal etadi, Umumiy yig‘ilishning hamda Fanlar akademiyasi prezidentining vakolatiga kiruvchi masalalar bundan mustasno;

Umumiy yig‘ilish qarorlari ijrosini tashkil etadi, shuningdek, Fanlar akademiyasi prezidenti funksiyalarining o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishiga ko‘maklashadi;

Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan zaruratga ko‘ra oyda kamida bir marta chaqiriladi;

qarorlari uning a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Prezidium majlislarida Fanlar akademiyasi prezidenti bo‘lmagan taqdirda, Fanlar akademiyasi Birinchi vitse-prezidenti — bosh ilmiy kotib yoki vitse-prezidentlaridan biri raislik qiladi;

majlisida qaror qabul qilishda ovozlar teng bo‘lgan hollarda, Fanlar akademiyasi prezidentining (raislik qiluvchining) ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

9-bob. Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlari

45. Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish faoliyati uning ilmiy tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Ilmiy tashkilot o‘zining ilmiy-tashkiliy faoliyatini tegishli fan bo‘limlari bilan birgalikda yuritadi.

Fanlar akademiyasi tizimida ilmiy va ma’muriy lavozimlarni egallashning belgilangan tanlov tartibiga ko‘ra ilmiy tashkilot direktori lavozimiga Birinchi vitse-prezident — bosh ilmiy kotib hamda Fanlar akademiyasi fan bo‘limlari tavsiyasi bilan Fanlar akademiyasi prezidenti tomonidan 65 yoshdan oshmagan, muhim ilmiy muammolarni hal etish orqali fanni boyitgan yoki fanni rivojlantirishning yangi yo‘llarini belgilash va ilmiy maktab asoslarini yaratish imkonini bergan muhim ilmiy natijalarga erishgan yetakchi va tashkilotchi olimlar — fan doktorlari orasidan mehnat shartnomasi qonunchiligiga muvofiq 5 yil muddatga tayinlanadi hamda uning lavozimni ketma-ket 2-martadan ortiq egallashiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ilmiy tashkilot direktori o‘zi rahbarlik qilayotgan ilmiy tashkilotning faoliyati uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

Direktor tashkilotda o‘tkazilgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning mamlakat ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini ta’minlashga, ilmiy-tadqiqot ishlarining zamonaviy moddiy-texnik bazasini yaratishga, o‘z sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashga, oliy ta’lim tashkilotlari va iqtisodiyot tarmoqlari hamda yetakchi xorijiy markazlar bilan hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yishga mas’uldir.

Ilmiy tashkilot direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari (fan doktori yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), ilmiy kotibi (fan doktori yoki nomzodi, falsafa doktori PhD) tegishli vitse-prezident hamda Birinchi vitse-prezident — bosh ilmiy kotib bilan kelishilgan holda ilmiy tashkilot direktori tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Ilmiy tashkilotlar direktorlarining hisobotlari har yili tegishli fan bo‘limlarida haqiqiy a’zolar (akademiklar) va muxbir a’zolar hamda ilmiy jamoatchilik ishtirokida eshitiladi.

Ilmiy tashkilotning laboratoriya va bo‘lim mudirlari, ilmiy tashkilot ilmiy kengashi qarori bilan fan doktorlari (DSc) yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega yetakchi va tashkilotchi olimlar orasidan tanlov asosida direktor tomonidan lavozimga tayinlanadi.

Ilmiy tashkilotda ilmiy kengash tuziladi.

Ilmiy tashkilotlar ushbu Ustav va Fanlar akademiyasi Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan ilmiy tashkilot

nizomiga muvofiq ish yuritadilar.

10-bob. Fanlar akademiyasining mol-mulki va uning faoliyatini moliyalashtirish

46. Fanlar akademiyasining mol-mulkini unga operativ boshqarish huquqi asosida biriktirilgan asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, shuningdek, faoliyati davomida sotib olingan mol-mulk tashkil etadi.

Fanlar akademiyasi mol-mulki bo‘linmasdir, uning taqsimlanishi mumkin emas. Fanlar akademiyasi ruxsatisiz yoki qonunchilik hujjatlariga zid hollarda Fanlar akademiyasining asosiy fondlari va boshqa mol-mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish mumkin emas.

Fanlar akademiyasining mol-mulkidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda foydalaniladi.

Fanlar akademiyasining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan yoki undan olingan daromadlar hisobidan sotib olingan mol-mulklar alohida balansda hisobga olinadi va Fanlar akademiyasi tomonidan mustaqil tasarruf etiladi.

Fanlar akademiyasining faoliyati quyidagi shakllarda taqdim etiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi:

ilmiy tashkilotlar xodimlari mehnatiga haq to‘lash, bino va inshootlarni saqlash xarajatlarini moliyalashtirish, shuningdek, joriy xarajatlarni moliyalashtirish;

davlat ilmiy dasturlari doirasida amalga oshiriladigan ilmiy loyihalar uchun tanlov grantlari;

qonunchilik hujjatlariga muvofiq jalb qilingan budjetdan tashqari mablag‘lar (tashqi va ichki investitsiyalar, ishlab chiqarilgan mahsulotni va intellektual mulk obyektlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar, hadya, xayr-ehson, homiylik mablag‘lari va boshqalar);

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

47. Fanlar akademiyasi boshqaruv apparati xodimlariga ish haqi to‘lash, ularni mukofotlash, ularga moddiy yordam ko‘rsatishda davlat boshqaruvi organlari xodimlari uchun belgilangan shart-sharoitlar tatbiq etiladi.

48. Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlari tomonidan budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar qonunchilik hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida sarflanadi.

49. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot dasturlari loyihalarining natijalari bo‘yicha hisobotlar Fanlar akademiyasi olimlari tomonidan ilmiy tashkilotlarning intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish bo‘yicha qonunchilik hujjatlariga rioya qilgan holda, Fanlar akademiyasining tanlovlar va ekspertizalarni tashkil etish bo‘limiga (yoki fan yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli bo‘limlarga) topshiriladi.

Ko‘rib chiqilgan hisobotlar belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

50. Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarining ilmiy xodimlari va mutaxassislari ushbu tashkilotlarda yaratilgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan qonunchilik hujjatlariga muvofiq va belgilangan tartibda mualliflik huquqlariga ega subyektlar hisoblanadi.

51. Fanlar akademiyasi va uning tizimidagi ilmiy tashkilotlar, o‘zlarining budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan turli tashkiliy-huquqiy shakldagi mas’uliyati cheklangan, qo‘shma va innovatsion korxonalar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarini tashkil etish huquqiga ega va bunda korxonaga egalik huquqi qonunchilik hujjatlari doirasida amalga oshiriladi.

Har bir ilmiy tashkilot o‘zi yaratgan ishlanmani belgilangan tartibda tijoratlashtirish va ishlanmani litsenzion kelishuv asosida foydalanishga berish huquqiga ega.

52. Fanlar akademiyasi huzurida ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, yosh olimlarni jalb qilish va

strategik ahamiyatga ega ilmiy yo‘nalishlarni barqaror moliyalashtirish hamda ilmiy xodimlarni moddiy rag‘batlantirish maqsadida Fanlar akademiyasi jamg‘armasi tashkil etiladi.

Jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag‘lar, xalqaro moliya tashkilotlari va xorijiy davlatlarning grantlari va texnik ko‘mak mablag‘lari, jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, xorijiy homiylik xayriyalari, jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini tijorat banklariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Fanlar akademiyasi jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

53. Fanlar akademiyasi huzurida Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida Kasaba uyushmasi tashkil etiladi. Kasaba uyushmasi to‘g‘risidagi nizom Umumiy yig‘ilish tomonidan tasdiqlanadi.

11-bob. Yakunlovchi qoida

54. Fanlar akademiyasi, uning tizimidagi ilmiy tashkilotlar va boshqa tashkilotlari qonunchilik hujjatlariga muvofiq tugatiladi hamda qayta tashkil etiladi.